

TURIZMDA RAQAMLASHTIRISHNING O'RNI

Yo'ldoshev Abdumalik

Toshkent kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Yuldasheva Mahliyo

Toshkent kimyo xalqaro universiteti 3- kurs talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasida raqamlashtirishning dolzarbliji, uning afzalliliklari va zamonaviy tendensiyalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning turizm xizmatlariga kiritilishi orqali sohaga qanday yangiliklar joriy qilinayotgani va bu o'zgarishlarning samarasi tahlil qilingan. O'zbekiston misolida raqamli turizmni rivojlanadirish yo'nalishlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, turizm, raqamli texnologiyalar, onlayn xizmatlar, virtual sayohat, sun'iy intellekt, mobil ilovalar, marketing.

Аннотация. В данной статье рассмотрена актуальность цифровизации в туристической сфере, ее преимущества и современные тенденции. Какие инновации внедряются в сектор за счет внедрения цифровых технологий в туристические услуги и анализируется влияние этих изменений. На примере Узбекистана также были рассмотрены направления развития цифрового туризма.

Ключевые слова: цифровизация, туризм, цифровые технологии, онлайн-сервисы, виртуальные путешествия, искусственный интеллект, мобильные приложения, маркетинг.

Annotation. This article describes the relevance of digitalization in the tourism sector, its advantages and current trends. What innovations are being introduced to the sector through the introduction of digital technologies in tourism services and the impact of these changes are analyzed. On the example of Uzbekistan, the directions for the development of digital tourism were also considered.

Key words: digitalization, tourism, digital technologies, online services, virtual travel, artificial intelligence, mobile applications, marketing.

KIRISH.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar har bir soha singari turizm rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet imkoniyatlarining kengayishi va sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari turistik xizmatlarning ko'lамини kengaytirib, ularning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois turizmda raqamlashtirish — bu vaqt talabi, raqobatbardoshlikni oshirish vositasi va zamonaviy turizmning asosiy omillaridan biridir.

Turizm sohasida raqamli transformatsiya sharoitida turistik talabni tahlil qilish va prognoz qilish juda muhimdir. Bu, turizm sohasidagi yangiliklarni va o‘zgarishlarni tushuntirish, turistik talablarni aniqlash va ularni qondirishga yordam beradi. Turistik talabni tahlil qilish uchun, statistik ma’lumotlar, anketalardan olingan ma’lumotlar, onlayn platformalardagi fikrlar va sharhlar kabi ma’lumotlardan foydalanish mumkin. Bu ma’lumotlar asosida, turistik joylarga qaysi davlatlardan, shahardan yoki ob-havo sharoitlaridan qanchalik ko‘p sonli sayohlar keldi, qanday turistik tadbirlar va yutuqlar ommalashtirildi, qanday turistik xizmatlar va mexanizmlar talab qilinadi, shularni aniqlash mumkin. Prognoz qilish uchun esa, turistik talabning o‘zgarishlarini va tendentsiyalarini tushuntirish, turizm sohasidagi yangiliklarni va o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish, boshqa sohalardagi o‘zgarishlarni hisobga olish va ularni turizm sohasiga ta’sirini o‘rganish kerak. Bu, turizm sohasidagi tashqi va ichki faktorlarni tushuntirish, turistik talabni oshirish va uning qanday rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METDOLOGIYASI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirishga oid adabiyotlarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish borasida, xorijlik yetakchi olimlardan Dmitrios Buhalis “raqamli turizmni elektron turizm, smart turizm atamalari bilan bir xil ekanini ta’kidlab, elektron turizm bu tashkilotlarga turizm, sayohat, mehmondo‘stlik va umumiyoq ovqatlanish sohalaridagi samaradorlikni oshirishga imkon beradigan barcha jarayon va xizmat zanjirlarini raqamlashtirishdir” deb ta’riflagan bo‘lsa, A.Durrant esa raqamli turizmni muzeylar, qishloq joylari, hayvonot bog‘lari va tematik bog‘lar kabi turli yo‘nalishlarda qo‘llanilish afzalliklariga e’tibor qaratishgan. Rossiyalik olimlardan N.Morozova va M.Morozovlarning fikricha “Turizmda raqamli texnologiyalar — zamonaviy turizm sanoatida yangi elektron texnologiyalarning joriy etilishi turistik biznesning bozor amaliyotida istalgan turmahsulotni yaratish va sotish texnologiyasini, transport vositalarini erishish va turistlarni joylashtirish imkoniyatlari haqida malumotlarni taqdim etish, joylarni tez bronlashtirish va rezervlashni ta’minalash, hamda turistik xizmatlarni (chiptalar, hisoblar va yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatmalar kabi hujjatlarni parallel rasmiylashtirish, hisob-kitob va ma’lumotnomali axborotlar bilan ta’minalash va boshqalar) taqdim etishda qo‘srimcha vazifalarni yechishni avtomatlashtirishni ta’minalaydigan tizimlarni yaratishdan iborat”, L.A.Rodigin va E.L.Rodiginlarning “Turizmda internet texnologiyalari va mehmondo‘stlik” nomli o‘quv qo‘llanmasida Internet va protokollarni yaratish haqida to‘liq ma’lumot bergenlar. Bu qo‘llanmada biz Internetni yaratishda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni olishimiz mumkin standart manbalarni manzillash tizimini ishlab chiqish (URL - Yagona Resurs Locator) va ma’lumot almashish qoidalari – TCP (Transmission Control Protokol) protokollari va IP (Internet Protokol), odatda birgalikda ishlatiladi va ma’lum TCP/IP nomi bilan qo‘llaniladi deb o‘z ilmiy

izlanishlarida ham turizmga oid hamda uni rivojlantirish muammolari bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirib, uningnazariyasini boyitish va zamonaviy amaliyotini shakllantirishga munosib hissa qo'shgan.[4; 55,60-b]

O'zbekistonda turizm sohasi rivojlantirish masalalari bo'yicha, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.SH.Safarov, M.T.Aliyeva kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Shuningdek, O.Q. Xurramovning "Turizm rivojiga taaluqli barcha sohalarda innovatsion ma'lumot olish manbalarini joriy qilish va ularni jadal takomillashtirish raqamli makonni shakllantirib, undan samarali foydalanish nafaqat mahalliy sayohatchilar, balki xorijiy sayyoohlар uchun ham muhim omillardan biri sanaladi", A.N.Norchayev esa "Xizmat ko'rsatishda raqamli iqtisodiyot-yangi ishlab chiqiladigan yoki joriy qilinishi lozim bo'ladigan jarayon emas, bu turizmda innovatsion texnologiyalarni turistlarning kundalik hayotiga joriy etish orqali mavjud xizmatlarni yangicha ko'rinishga o'tkazish", degan fikrlari ayniqsa hozirda asosiy masalaga yechim sifatida ko'rish mumkin.[5; 40,45-b]

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtida xorij tajribasidan foydalanadigan bo'lsak eng ilg'or rivojlanayotgan turizmni raqamlashtirayotgan davlatlardan biri bu Rossiya. Rossiya o'zining ilg'or g'oyalari, sayyoohlarni o'ziga jalg qilishi bilan bir marotaba kelgan sayyoohlarni ikki va uchinchi marotaba kelishga undashi bilan o'ziga jalg qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, strategik raqamli kontentdan foydalanishning ortishi 2019-yilda Rossiya yalpi ichki mahsulotini 7,5 milliard AQSh dollariga oshirdi va 362 ming ish o'rinalarini yaratdi.

Internet orqali Rossiya turistik sayohatlar ulushi ortdi. hisob-kitoblarga ko'ra, Rossiyada Internet orqali sayohatlarni tashkil qilish afzalligi boshqa mamlakatlarga qaraganda tezroq shakllangan. Bundan tashqari, sayyoohlarning xohish-istiklari tufayli o'sish imkoniyati mavjud. Misol uchun, IPK ma'lumotlariga ko'ra, chet eldan Rossiya tashrif buyuradigan va veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga asoslangan holda o'z tanlovini amalga oshiradigan sayyoohlар ulushi boshqa Yevropa mamlakatlaridagi tegishli ko'rsatkichdan yuqorida. Shu bilan birga, shu maqsadda turar joy saytlari, sharhlar/sharhlardan foydalanayotgan turistlar ulushi pastroq. Destinatiya tashkilotlari va sayyoohlilik kompaniyalarida raqamli transformatsiya orqali ilg'or tajribalarni qo'llash va qo'shimcha turizm faoliyatini rag'batlantirishning yana bir yo'nalishi mavjud. Mahalliy biznesni ilg'or raqamli amaliyotlarga o'rgatish uchun vaqt ajratish, shuningdek, mahalliy turizm sektori xodimlarining raqamli ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlarini taqdim etish raqamli ekotizimning rivojlanishiga va Rossiya turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Turizmda axborot texnologiyalarining tarqalishi bir qancha qo'shimcha ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog'liq. Axborot texnologiyalarining yakka o'zi turizm xizmatlarining "yangi kombinatsiyalari"ni yarata olmaydi, albatta

texnologiyalarning bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional, siyosiy va madaniy omillar bilan qo'shilishigina tovar va xizmatlar, metod va bozorlarning yangi kombinatsiyalarini yaratilishiga olib kelishi mumkin. Telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va interfeyslar shunga ko'maklashadiki, axborot tizimlaridan bevosita sayohatchini foydalana oladi. Agar tizim to'g'ri qo'llanilayotgan bo'lsa, axborot texnologiyalari xizmatning yuqori sifatini ta'minlaydi, shunday qilib, mijozlarning talabi to'laroq qondiriladi. Lekin yuksak texnologiya bilan zarur darajadagi shaxsiy e'tibor o'rtaida muayyan muvozanatni saqlab turish talab etiladi.

Turizm sohasida rivojlangan davlatlarning xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarishda muammolar sferasining vaqtini tejash bosqichidan o'tib, rivojlanishning keyingi bosqichlariga qadam qo'yishgan.

Raqamlashtirish – bu an'anaviy jarayonlarni raqamli shaklga o'tkazish, ularni avtomatlasinghtirish va ma'lumotlarni real vaqt rejimida boshqarish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuidir. Turizmda bu jarayon onlayn bron tizimlari, elektron xaritalar, mobil ilovalar, chatbotlar, virtual ekskursiyalar, raqamli to'lov vositalari kabi vositalar orqali amalga oshiriladi.

Xizmatlar sifati va qulayligi: Turistlar endi sayohatni rejalashtirish, chipta xarid qilish, mehmonxona band qilish va ekskursiyalar haqida ma'lumot olishni mobil ilovalar orqali tez va oson bajarishlari mumkin.

Marketing va targ'ibot: Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va influencerlar orqali yangi yo'nalishlar va xizmatlarni ommaga yetkazish osonlashdi.

Analitika va ma'lumotlar: Turizm sohasida mijozlar haqidagi raqamli ma'lumotlar asosida tahlillar olib borish, xizmatlarni moslashtirish va personalizatsiyalash imkoniyati yaratildi.

Xavfsizlik: Raqamli to'lovlar, biometrik tekshiruvlar va onlayn ro'yxatdan o'tish orqali sayohatchilarining xavfsizligi oshirilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizmni raqamlashtirish bo'yicha bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, "E-Visa" tizimi joriy etilishi, "Uzbekistan.travel" portalı orqali turistik resurslarga yagona kirish imkoniyati yaratilishi, 3D virtual turlar va mobil gid ilovalari ishlab chiqilishi bunga misoldir. Bundan tashqari, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda raqamli axborot panelari, QR-kodli yo'l ko'rsatkichlar o'rnatilmoqda.

Aqli turizm – bu raqamli texnologiyalar yordamida sayyoqlik xizmatlarinitakomillashtirish va sayyoqlar uchun qulayliklar yaratish jarayoni hisoblanadi.

O'zbekistonda aqli turizmni rivojlantirish uchun quyidagi texnologiyalarni joriyetish muhim:

- Aqli yo'nalishlar va mobil ilovalar
- Elektron gidlar va sun'iy intellekt asosida ishlovchi tarjimonlar

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari orqali turistik tajribalarni boyitish.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar yordamida sayyoohlar uchun individualxizmatlar taklif etish mumkin. Misol uchun, turistik platformalar foydalanuvchilarning afzalliliklarini o'rganib, ularga mos keluvchi marshrutlarni tavsiya qilishi mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish Strategiyalari. Blokcheyn texnologiyasi va to'lov tizimlari. Blokcheyn texnologiyasi sayyoohlilik xizmatlarini yanada shaffof qilish imkonini beradi.

Xususan, xavfsiz va tezkor to'lov tizimlarini yaratish orqali turistlar uchun qulaylik yaratiladi.

Raqamli marketing strategiyalari. Raqamli marketing vositalari – ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt asosida ishlovchi reklama platformalaridan foydalanish orqali sayyoohlarni jalb etish mumkin.[7; 35,42-b]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turizmda raqamlashtirish – bu zamonaviy xizmatlar tizimini shakllantirish, turistlar ehtiyojiga moslashtirilgan, tezkor va interaktiv aloqa tizimlarini yo'lga qo'yishdir. Bu jarayon nafaqat turistlar uchun qulaylik, balki davlat uchun iqtisodiy samaradorlik va brend imidjini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston bu yo'nالishda aniq qadamlar tashlamoqda va istiqbolda raqamli turizmni yanada rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarga ehtiyoj mavjud. Shuningdek, Sayohat ekotizimidagi raqamli platformalarning jadallahishi, sayohatchilarning sayohatlarini qulayroq va samaraliroq rejalshtirish uchun katta ahamiyatga ega. Bu platformalar, sayohatchilar uchun eng arzon va eng qulay sayohatlarini topishiga va ularning jadallahishi, sayohatchilar uchun eng yaxshi vaqt va pul tejashini ta'minlashiga, sayohatchilar uchun eng yaxshi narxlarni tanlash va sayohatlarini to'liq tashkil etishga, sayohatchilar uchun samarali va qulay sayohat tajribasini ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT

1. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi. "O'zbekistonda turizm sohasi rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot". Toshkent, 2022. 45-50-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. Toshkent, 2021. 30-35-betlar.
3. UNWTO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon Turizm Tashkiloti). "Global Tourism Report". Madrid, 2023. 12-20-betlar.
4. Karimov A. "O'zbekistonda turizm va raqamli texnologiyalar integratsiyasi". Ilmiy jurnal: O'zbekiston iqtisodiyoti, 2022. 55-60-betlar.
5. Xalqaro Turizm Instituti. "Raqamli texnologiyalar va turizmning rivojlanish tendensiyalari". London, 2023. 40-45-betlar.

6. Ismoilov B. "Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar analitikasi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar". Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. 22-28-betlar.
7. Rahimov Sh. "Blokcheyn texnologiyasi va turizm xavfsizligi". Ilmiy jurnal: Innovatsion iqtisodiyot, 2022. 35-42-betlar.

